

8-Mavzu: Urbanizatsiya. Shahar va qishloq aholisi

Reja:

1. Aholi maskanlari haqida tushuncha
2. Shahar aholi punktlarining rivojlanish hususiyatlari
3. Urbanizatsiya

Ma'lum bir formaga ega bo'lgan, aholining hududiy joylanishi aholi manzilgohlari deyiladi. Aholi manzilgohlari aholi geografiyasi fanining muhim kategoriyasi bo'lib, aholining yashayotgan joylarigina bo'lib qolmay, balki moddiy va ma'naviy boyliklari ishlab chiqariladigan va iste'mol etiladigan butun ijtimoiy hayotning asosiy markazlari hisoblanadi. Aholi punktlarini geografik jihatdan o'rganishda va harakterlashda har bir aholi manzilgohlarida yashaydigan aholining sonini bilish muhim ahamiyatga ega. Chunki aholi manzilgohlari, birinchi navbatda, aholining soniga qarab (bir necha kishi yashaydigan mayday qishloqlarda tortib, to bir necha million kishilik aholi bo'lgan eng yirik shaharlargacha) klassifikatsiyaga ajratiladi.

Aholi manzilgohlarini geografik jihatdan o'rganishda unda yashaydigan aholining umumiy soniga emas, balki uning tartibini, xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishini, shuningdek har bir aholi manzilgohining bajaradigan funksiyasini, mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, uning boshqa aholi manzilgohlari bilan aloqasi, tabiiy geografik o'rnini analiz qilish muhimdir. Shunday qilib, aholi punktlari aholi yashaydigan joy sifatidagina qiziqtirmasdan, balki ishlab chiqarish, markazlari, xo'jalik markazlari, madaniy – siyosiy markazlar, iqtisodiy aloqalarning asosiy tugunlari sifatida ham qiziqtiradi.

2. Aholi manzilgohlari birinchi navbatda 2 ta katta tipga ajraladi:

1. Shaharlar

2. Qishloqlar.

Shahar va qishloq tushunchalarining vujudga kelishi, shaharlarning qishloqlarda ajralib chiqishi jamiyat tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy mehnat taqsimoti jarayonida xunarmandchilik va savdoning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi munosabati bilan shahar va qishloq tumanlari bilan shahar va qishloq tushunchalari vujudga kelgan. Hunarmandlar va savdo bilan shug'ullanuvchilar yashaydigan aholi manzilgohlari shaharlar deb ataladi.

Qishloq ho'jalik mehnati bilan shug'ullanuvchilar yashaydigan joylar qishloqlar deb ataladi. Shahar va qishloq tushunchalarining vujudga kelishi dunyoning turli qisimlarida bir vaqtda bo'lgan emas, albatta. Ko'pchilik hollarda shaharlar, asosan, ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik tuzimiga o'tish davrida vujudga kela boshladi.

Aholi manzilgohlari turli mamlakatlar hududida, ularning ayrim rayonlari bo'yicha taqsimlanishi va to'planishi asosan o'sha mamlakatning xo'jalik geografiyasi bilan belgilanadi. Xo'jalikning hududiy joylashuvi, uning o'ziga xos xususiyatlari har bir rayon uchun aholi manzilgohlari muayyan formalarini vujudga keltiradi.

Professor V.V.Pokshishevskiy aholi manzilgohlarini qo'yidagi 6 ta formasini dunyo bo'yicha keng tarqalgan formalar deb hisoblaydi.

1. Qishloq aholi manzilgohlari yoyilgan (tarqoq) formasi.

Bunda odatda qishloq xo'jaliigi bilan shug'ullanuvchi aholi o'z hovlisi mehnat qilib yashaydi.

Qishloq aholisining tarqoq formasida, odatda, bir yoki bir necha ommadan iborat bo'gan aholi manzilgohlari yashashga hozirgi paytda AQSh ning ayrim rayonlarida keng tarqalgan formolari misol bo'la oladi.

2. Qishloqlar.

Bu formalar qishloq aholisi guruh – guruh bo'lib yashaydi. Ammo bu formada ham qishloqlar qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlar bo'ylab tarqoq joylashgan bo'ladi. Bu forma dunyoning deyarli barcha qisimlarida tarqalgan bo'lib, qishloq aholisining asosiy yashah formasidir. Qishloqlarning katta kichikligi ekin ekiladigan massivlarning katta kichikligiga, taraqqiy etgan qishloq xo'jalik tarmog'ining ko'p yoki kam mehnat talab qilishga bog'liq.

3. Shaharlar.

Aholi manzilgohlari ijtimoiy mehnat taqsimotining mahsuli sifatida vujudga kelgan asosiy tipi, hozirgi zamonda aholining eng keng tarqalgan yashash formasidir.

Shahar bilan qishloqni bir – biridan ajratib tutadigan asosiy belgi – ularning qishloq xo'jaligida bajaradigan funktsiyasidir.

Qishloq doimo qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi yashaydigan manzilgohlar. Shahar esa, mehnat faoliyatining qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqlari bilan shug'ullanuvchi aholi yashaydigan, odatda qishloqlarga nisbatan katta bo'lgan aholi manzilgohlari.

Bizda aholi manzilgohlari shaharlarga aylantirish yoki qishloq holiday saqlab qolishningqonun – qoidalari bor, masalan Rossiyada 1957 yilgacha aholining soni 1000 kishidan kam bo'lmagan, qishloq xo'jaligida ishlovchilarning salmog'i 25 foizdan ortiq bo'lmagan aholi manzilgohlari shaharga aylantirilishi mumkin edi. Shuningdek, aholi manzilgohlari iqtisodiy va madaniy ahamiyati ham e'tiborga olingan. Hozir aholi manzilgohini shaharga aylantirish uchun undagi aholi soni 12 ming kishidan kam bo'masligi, barcha aholining 85 foizi ishchi, xizmatch va ularning oila a]zolaridan iborat bo'lishi kerak.

O'zbekiston aholi manzilgohini shaharga aylantirish uchun undagi aholining soni 7 mingdan bo'lmasligi, aholining 2G'3 qismi, ishchi, xizmatchi va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi kerak. Turli respublikalarda aholi manzilgohlari shaharlarga aylantirish shartlari xilma – xildir. Bu xilma – xillik mahalliy sharoitlar bilan bog'liqdir. Umuman dunyoning turli mamlakatlarida aholi manzilgohlari shahar deb atash va shaharga aylantirish shartlari turlichadri.

AQSh da aholisining soni 2500 kishidan ortiq barcha aholi manzilgohlari shahar qatoriga kiritiladi. Frasiyada aholi soni 2000 kishi, Islandiyada atiga 200 kishi bo'lsa kifoya, shaharga aylantiriladi. Gollandiyada esa aksincha aholi manzilgohlari shaharga aylantirish uchun u erda 20000 kishidan ortiq aholi yashashi kerak, Koreyada 40000 kishi va bundan tashqari.

4. Shahar darajasiga etmagan sanoat manzilgohi posyolkalar.

Bunday aholi manzilgohlari ko'proq tog' – kon sanoati bilan bog'liq xolda vujudga keladi. Bunday shaharchalar Germaniyaning Rur sanoati rayonida, yuqori sileziyada (Polshada) Janubiy Afrika Respublikasining oltin va olmos konlari rayonlarida keng tarqalgan. Yog'och tayyorlanadigan yirik rayonlarda ham shunday ishchi shaharchalari bo'ladi. (Konada, Shvetsiya, Finlandiya va boshqa). Ayrim mahsulotlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq shunday posyolkalar vujudga keladi. Kuba, Braziliya qand zavodlari, Xindiston, Xitoy va Shirilankada choy fabrikalari va boshqa.

5. Ko'makchi harakterga ega bo'lgan aholi punktlari.

Bunday aholi manzilgohlari aholisining soni kam bo'lib, shaharlarga ham, qishloqlarga ham kiritilmaydi. Vaqt nuqtaiy nazaridan bunday aholi manzilgohlari ijtimoiy va territorial mehnat taqsimoti kuchli taraqqiy etgan keyingi davrlarda vujudga kela boshlagan.

Masalan: sanatoriya, kasalxona, turizim rivojlangan, ilmiy muassaslar joylashga va shahar hamda qishloqlardan tashqarida bo'lgan alohida aholi manzilgohlari yana shunday ko'makchi punktlardir.

6. Ko'chmanchi halqlarning yashash formalari.

Ko'chmanchi halqlarda odatda, doimiy aholi manzilgohlari bo'lmaydi, ular vaqtincha turish uchun alohida joylarda yashaydilar. Ko'chmanchlik qadim davrlarda keng tarqalgan edi. Hozir esa juda kam uchraydi. Turli – xil aholi manzilgohlari bir – biri bilan aloqada bo'lib, turli hududiy tuzilmalarni vujudga keltiradi.

Shuning uchun ham aholi manzilgohlarini geografik jihatdan o'rganganda ularni doimiy aloqada bo'lgan bir butun tizim deb qarash, ularning hududiy mehnat taqsimotidagi o'ninish taxlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Shahar aholi punktlarining rivojlanish xususiyatlari

Shaharlar kishilik jamiyatining ilk davrlar bo'lgan antik davrlarda yuqori darajada shakllanib, jamiyat taraqqiyotida katta o'rin tutgan. Antik davr davlatchiligida Shaharlar markaziy o'rin tutib, aholi punkti sifatida emas davlatlar negizi sifatida maydonga chiqadi. Misr, Yunoniston, Rim va Old Osiyo mamalakatlari Shaharlarning rivojlanishi tufayli kuchli taraqqiy etgan davlatlarga aylangan. Shaharlar inqirozi esa, bu davlatlarning parchalanishiga va hatto yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lgan. Shaharlar ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan aholi punktlari bo'lib, ularning bunyod qilinishida qishloqlarga nisbatan turli tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamda eng muhimi strategik qulaylik sharoitlari talab etiladi. Aytish mumkinki, ba'zi hollarda bu talablardan eng muhimi muayyan bitta omilga bo'ysinadi. Shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi insoniyat taraqqiyotida yangi yo'nalishlarni ochib beradi. Barcha yangiliklar, o'zgarishlar, tushuncha va munosabatlar Shaharlarda paydo bo'ladi. Arxitektura, yozuv, siyosiy munosabatlar, ilm-fan taraqqiyoti Shaharlar tushunchasi bilan bog'liqdir. Qadimiy Shaharlardagi binolar, shakllar turli tarixiy davrlar qiyofasi haqida ma'lumot beradi va bugungi kunda Shaharlarning rivojlanishi mamlakatlarning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotidagi asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Turli tarixiy davrlarda Shaharlarning ahamiyati u yoki bu darajada o'zgarib turgan bo'lsada, ular yirik aholi punktlari, asosiy ishlab

chiqarish va savdo tugunlari, strategik ahamiyatga ega bo'lgan nuqtalar, poytaxtlar kabi vazifalarni bajarib kelgan. Shaharlarning tarixiy ahamiyati shundaki, turli davrlarda xalqlarning milliy shakllanishi madaniy va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi haqida ma'lumot beradi. Binobarin Shaharlarning vujudga kelishi va shakllanishida xalqlarning rivojlanish yo'nalishlari namoyon bo'ladi. Shaharlar, aholi punkti va ijtimoiy hodisa sifatida turli tarixiy davrlarda jamiyat taraqqiyotida alohida o'rinlarga ega bo'lgan.

Xususan:

- **Shaharlar davlat negizi sifatida (Bobil, Afina, Rim va h.k.)**
- **Shaharlar ijtimoiy siyosiy g'oyalar markazi (Quddus, Makka)**
- **Shaharlarning madaniy va ijtimoiy rivojlanish markazlari sifatidagi o'rne (Samarqand, Buxoro, Istambul, Parij, Sankt - PetYerburg va b.)**
- **Shaharlar milliy tiklanish, davlatchilik markazi (Kiev, Moskva, Novgorod, Dehli)**

Shunday o'rin xususiyatiga ega bo'lish orqali Shaharlar jamiyat taraqqiyotining yangi yo'nalishlarini binobarin insoniyat tarixining o'zgarishlar bosqichini yuzaga keltirgan deyish xato bo'lmaydi. Chunki insoniyat tarixining o'zgarishlari muayyan hududda, xususan Shaharlarda ro'y beradi. Hozirgi zamonda Shaharlar mamlakat iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishining asosiy hududlaridir. Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rne va xususiyatlari rivojlanishga ta'sir etuvchi omillardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Qadimgi Shaharlarning vujudga kelishida asosan ikkita omil muhim o'rin tutgan.

1.Savdo-sotiqning rivojlanishi;

2.Strategik maqsadlar.

Shaharlar asosiy xalqaro savdo yo'llariga xizmat qilish nuqtalarida vujudga keladi. Bunday Shaharlarning vujudga kelishi uchun asosiy omil savdo-sotiq uchun qulay sharoitdir. Shaharlarning savdo sotiq omili ta'sirida vujudga kelishi qadimda Osiyo qit'asi uchun xarakterli bo'lgan. Chunki eng yirik savdo yo'llari Osiyo qit'asida edi. Shaharlarning strategik maqsadlarda vujudga kelishi eng avvalo Shahar va Shahar aholisini dushmandan himoya qilishga asoslanadi. Bunda Shaharlar bostirib kelayotgan dushmanni to'xtatib qoluvchi yagona to'siq bo'ladi. Shaharlarni barpo etishda bunday maqsadning bosh omil bo'lishi jamiyatdagi iqtisodiy ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning o'ziga xos shakllanishi natijasidir. O'rta asrlar Yevropasida siyosiy va ijtimoiy beqarorliklar hukm surishi o'sha davr Yevropa Shaharlarining vujudga kelishida ushbu omilning bosh maqsad sifatida qabul qilinishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy Shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy omil iqtisodiy geografik rayonlashtirish bilan bog'liq. Resurslardan foydalanish va mehnat resurslarini joylashtirish, mamlakatda iqtisodiy rayonlarni shakllantirish masalalari Shahar bunyod qilish va Shaharsozlik bilan chambarchas bog'liqdir.

Dunyo mamlakatlarida aholi punktlarining Shahar maqomini olishlari uchun mezonlarning turlicha darajasi qabul qilingan, lekin asosiy ko'rsatkich aholi miqdori bo'lib qolgan. Shahar maqomini berishda aholi sonidan tashqari, aholining ishlab chiqarishdagi bandligi, xususan sanoat va noishlab chiqarish sohalaridagi

ulushi ham asosiy mezonlardir. Turli mamlakatlarda bu mezonlar darajasining har xilligi mamlakatlardagi yashash sifati va darajasi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari hisobga olinadi. Masalan: Rossiya Federatsiyasida aholi soni 12 mingdan oshgan va aholining 80% sanoat va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi punktlari Shahar maqomini oladi. O'zbekistonda muvofiq ravishda aholi soni 7 mingdan oshishi talab qilinadi. Bunday ko'rsatkichlar Yevropa mamlakatlarida ham har xil bo'lib, mamlakatdagi ishlab chiqarish sohalari xususiyatlari va aholi punktlari haqidagi tushunchalariga bog'liq.

Shaharlar vujudga kelishi birinchi navbatda ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq bo'lgani holda, jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, rivojlanishlar oqibatida yangi xususiyatlarni kasb eta boshlaydi.

Ayni vaqtda shaharlarning iqtisodiy geografik o'rnini belgilovchi mezonlar quyidagilarni tashkil etadi:

1. Shaharlarning aholi punkti sifatida hududdagi ahamiyati.
2. Shaharlarning iqtisodiy rayon ishlab chiqarishdagi korxonalar va mehnat resurslarining joylashuvidagi o'ri.
3. Shaharlarning mamlakat iqtisodiyoti, transporti, aholi joylashuvidagi ahamiyati.
4. Shaharlarning xalqaro iqtisodiy siyosiy munosabatlardagi o'ri.

Shaharlarni ularning hududiy mehnat taqsimotida ishtirokiga qarab klassifikatsiya qilish yo'li bilan har bir shaharning mehnat taqsimotida tutgan o'rnini, shahar sanoatining qanday xom-ashyoga asoslanishi yoki tayyor mahsulotni qaysi tomonlarga jo'natishi aniqlanadi. Bu esa ana shu mavjud aloqalarning qanchalik iqtisodiy jihatdan to'g'riligiga va samaradorligiga baho berish imkoniyatini beradi.

Hududiy mehnat taqsimotida har bir shaharning tutgan o'rnini aniqlashda uning iqtisodiy geografik o'rnini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy geografiya fanida Shaharlarni ularning hududiy mehnat taqsimotida tutgan o'rniga qarab quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Faqat mahalliy aloqalarda ishtirok etuvchi shaharlar (quyi ma'muriy rayonlarning iqtisodiy madaniy markazlari)
2. Iqtisodiy rayonlarning o'z ichidagi mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi shaharlar
3. Iqtisodiy rayonlararo mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi Shaharlar
4. Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi shaharlar.

Iqtisodiy geografiyada iqtisodiy geografik o'rin tushunchasining muhimligini. Uning mamlakatlar, rayonlar va shaharlarning rivojlanishidagi rolini N. N. Baranskiy asoslab bergan. N. N. Baranskiy ta'rifi bo'yicha, iqtisodiy geografik o'rin – muayyan joy, rayon yoki shaharning o'zidan tashqarida yotgan va uning rivojlanishi uchun ma'lum iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlarga nisbatan hududiy munosabatidir.

Iqtisodiy geografik o'rin qulayligi shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki shaharlar o'z-o'zidan vujudga

kelmasligi, balki o'z atrofidagi xo'jalik hayoti bazasida, iqtisodiy aloqalar negizida paydo bo'lishi va rivojlanishi bizga ma'lum.

Zamonaviy shaharlarning iqtisodiy geografik o'rning qulayligini belgilovchi muhim omil ayni vaqtda, undagi ishlab chiqarishning yoqilg'i, xomashyo resurslari bilan ta'minlanganligidir. Shaharning iqtisodiy geografik o'rni qanchalik qulay bo'lsa, uning o'sha resurslarni tashib keltirishi, tayyor mahsulotlarni o'zlashtirishi, iqtisodiy aloqalari shunchalik qulay bo'ladi, shuningdek uning rivojlanishi, yiriklashuvi uchun imkoniyatlar ham ko'p bo'ladi. Shaharlar o'z geografik o'rning o'zgarishiga ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Shahar o'z atrofidagi hududlarda o'zi uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlarini vujudga keltirish yo'li bilan (sanoat, qishloq xo'jalik tarmoqlarini) ularga iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi. Shaharlar, shuningdek, ma'lum pozitsiyani egallaganlaridan (masalan poytaxt bo'lganidan keyin) o'z iqtisodiy geografik o'rni har tomonlama yaxshilaydi.

Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni ularning hududiy mehnat taqsimotidagi o'rniga, ixtisosiga ta'sir ko'rsatadi. N. N. Baranskiy har bir shahar o'zi joylashgan iqtisodiy rayonning xarakterli belgilarini ko'zgudagidek ko'rsatib turadi degan edi. Haqiqatan ham har bir iqtisodiy rayonda o'sha rayonning ixtisosi bilan bog'liq bo'lgan shaharlarning ma'lum ishlab chiqarish tiplari rivojlangan. N. N. Baranskiy shaharlarning iqtisodiy-geografik o'rnini o'rganishda ularning quyidagi o'rinlarga ajratib ko'rsatadi:

1. Shaharlarning mikrogeografik o'rni
2. Shaharlarning mezogeografik o'rni
3. Shaharlarning makrogeografik o'rni

Shaharlarning mikrogeografik o'rni shaharning yaqin atrofga nisbatan tutgan o'rni bo'lib, bunday shaharalar kichik hududlarning (tuman, viloyat) iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishida ahamiyatlidir.

Mezogeografik o'rin deganda shaharlarning mamlakat, mintaqa miqyosida iqtisodiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi tushuniladi.

Makrogeografik o'rin esa shaharlarning qit'a yoki hatto dunyo miqyosida ta'sir doirasiga ega ekanligini ta'kidlaydi.

3. Urbanizatsiya jarayonining hududiy tafovutlari

Avvalo urbanizatsiya jarayoni va uning hududlar bo'yicha rivojlanish mezonlari haqida umumiy tushuncha hosil qilish maqsadga muvofiqdir. SHu asnodan tabiiy sharoit omillarining yirik Shaharlarga ta'sirini urbanizatsiya jarayonida sezilarli kechishini ko'rish mumkin.

Aholi punktlarini tadqiq etishda va aholi geografiyasida mamlakatlar urbanizatsiya darajasi va urbanizatsiya miqyosi degan tuushunchalar qabul qilingan. Bugungi kunda regionlar bo'yicha urbanizatsiya darajasi juda notekis. Bu jihatdan Osiyo eng past urbanizatsiya darajasiga ega. Bu hududda urbanizatsiya darajasi 30 % ni tashkil etadi. 2,2 mlrd dan ortiq kishi qishloqlarda yashaydi. Dunyo bo'yicha urbanizatsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlar ham Osiyo qit'asidadir. Masalan: Xitoyda 21%, Hindistonda 28%, Indoneziya va Butanda 15%, Nepalda 9%. Urbanizatsiya darajasi Shahar aholisining salmog'i bo'yicha

past, oʻrta va yuqori darajalarga boʻlinadi. Mamlakat aholisining 50% gacha qismi Shaharlarda yashasa, urbanizatsiya darajasi past hisoblanadi. 50 dan 75% gacha oʻrta, 75% dan yuqori boʻlsa, yuqori darajali urbanizatsiya hisoblanadi.

Jahon urbanizatsiyasi asosiy parametrlarining oʻzgarishi 1950-2010 yy.(N.A.Sluka boʻyicha, 2000 y)

5-jadval

Koʻrsatkichlar	Yillar				
	1950	1970	1990	2000	2010
Dunyo aholisining umumiy soni (mln. kishi.), shu jumladan:	2524	3702	5282	6091	6890
Shahar aholisi	750	1357	2279	2890	3586
Qishloq aholisi	1774	2345	3003	3201	3304
Shahar aholisi ulushi %	29,2	36,6	43,1	47,4	52,0
Yirik Shaharlar aholisi ulushi:					
Shahar aholisi ichida %	26,4	32,4	34,7	37,6	40,1
Barcha aholi ichida %	7,7	11,9	14,9	17,8	20,8
Yillik oʻrtacha oʻsish:					
Shahar aholisi %	3,0	2,6	2,4	2,2	2,0
Qishloq aholisi %	1,2	1,6	0,7	0,4	0,1
Aholi gavjumligi boʻyicha aglomeratsiyalar soni:					
500 ming kishidan ortiq.	185	340	577	737	871
1 mln. kishi.	83	165	282	372	474
“Millioner shaharlar”ning oʻrtacha gavjumligi, mln. k.	2,4	2,7	2,8	2,9	3,0

Jadval www.testing.uz saytidan olib qayta ishlandi

Urbanizatsiyaning XX asrdagi jadallashuvi juda avj oldi va shaharlar inqilobi degan nom oldi. Shu bilan birga bu jarayonning jamiyatga turli darajadagi taʼsiri kuchayib, bu hodisani tadqiq qilishning usullarini chuqurlashuviga olib keldi.

Shaharlar inqilobining birinchi 20 yilida yaʼni 1950-1970 yillar mobaynida shahar aholisining tabiiy oʻsishi butun insoniyat tarixidagi shaharlar aholisining sonidan br oz kam edi. Bu oʻsish 83,4% ni tashkil etadi. Undan keyingi 20 yil

ichida shahar aholisining ulushi yana 68,7% ga o'sdi. 1950 yilda 1990 yilgacha bo'lgan davrda shahar aholisining salmog'i 3,1 baravargacha ko'paydi va 21-asrning birinchi 10 yilligida shu tarzda saqlanib turdi. Yuqorida ta'kidlanganidek urbanizatsiyaning yuqori darajasi Yevropaning barcha mamlakatlari, AQSH, Kanada, Yaponiya, Avstraliya va Yangi Zelandiyaga xosdir.

XX asrning ikkinchi yarmida jahon urbanizatsiyasida rivojlanayotgan davlatlar muhim rol o'ynay boshladi. 1990 yilda ularda dunyo shahar aholisining 61,4% i yashayotgan edi. (1950 yilda bu 38,7% ni tashkil etgan). 2025 yilga kelib bashoratlarga ko'ra bu ko'rsatkich 80% dan ortiqni tashkil etadi. Rivojlanayotgan davlatlarda shaharlarning ko'payib borishi, ularning o'ziga xos jihatlari hisobga olganda jahon urbanizatsiyasining sifatli rivojlanishini sekinlashtiradi va hududiy tafovutlanishini keskinlashtiradi. Chunki bu mamlakatlardagi ko'pchilik shahar aholisi yaqinda qishloqlardan ko'chib kelgan bo'ladi va ular yashash tarzi bilan shahar turmush tarzini qishloqlashtiradi. Qisqa muddat ichida qishloqlardan shaharlarga aholining katta qismi ko'chib o'tganda bu vaziyatning yuzaga kelishi tabiiy holdir.

Yuqoridagi fikrlar asosan yaqin yillarda shahar aholisining kamligi bilan ajralib turgan mamlakatlarga tegishlidir. Bunday mamlakatlarga Nigeriya misol bo'ladi. Uning poytaxti Lagos 1950-1990 yillar mobaynida 27 baravar kattalashdi va dunyoning eng yirik 8 ta aglomeratsiyalari qatoriga kiradi. Shuningdek bunday xususiyatga ega bo'lgan mamlakatlarga Turkiya, Eron, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Braziliya, Meksika, Indoneziya kabilari kiradi. Bu jarayonning boshqa qutbida eng urbanizatsiyalashgan mintaqalar Shimoliy AmYerika, G'arbiy Yevropa va Yaponiya turadi.

Qishloqlar aholisining shaharlarga ko'chib o'tishi va iqtisodiy rivojlanishdagi bir qancha muvaffaqiyatlar ba'zi mamlakatlarni yuqori darajadagi urbanizatsiyalashgan davlatlarga aylantirib qo'ydi, masalan XX asrning 90-yillari mobaynida Venesuelada urbanizatsiya darajasi 92,9% ga chiqdi, xuddi shunday tendentsiyani Urugvay (90,3%), Argentina (87,5%), Chili (85,9%), Braziliya (78,7%), BAA (84%), Saudiya Arabistoni (80,2%), Iroq (75,6%), Liviya (86%), Tunis (59%)da kuzatamiz.

XX asrni haqli ravishda urbanizatsiya asri deb atash mumkin. 1900 yilda dunyo Shaharlarida butun dunyo aholisining 14% i yashagan va 12 ta millioner shaharlar mavjud edi. XXI asr arafasida shahar aholisi 45% ga etdi, 2,5 ming atrofida aholisi 100 mingdan ortiq yirik shaharlar, 107 ta millioner shaharlar hisobga olingan.

Urbanizatsiya jarayoni dunyoda xo'jalik tizimining va ishlab chiqarish munosabatlarining o'zgarishi bilan jadalashdi. Ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, differentsiatsiyalashuvi, hududiy tashkil etilishi va texnologik taraqqiyot bu jarayonga turkib beruvchi asosiy omillardir. Urbanizatsiya jarayoni shahar aholisining miqdoriy o'sishi bilan xarakterli bo'lib, bu holat XX asrgacha ancha sust va barqarorligi bilan ajralib turadi. 19-asr boshida dunyo shahar aholisi 29,3 mln kishini tashkil etgan, bu dunyo aholisining 3% ni tashkil etardi. 1900 yilga kelib bu ko'rsatkich 224,4 mln kishini va 14% ni tashkil etdi. XX asr davomida jarayonning o'sishi quyidagi raqamlarda aks etadi. 1950 yilda

Shahar aholisi 729 mln kishi, muvofiq ravishda 28,8%, 1980 yilda 1821 mln kishi va 41% ni, 1990 yilda 2261 mln kishi va 41% ni tashkil etdi.

Urbanizatsiya jarayonining umumiy xususiyatlari barcha mamlakatlarda birday namoyon bo'ladi. Bu:

- Shahar aholisining tez ko'payishi. Bu ayniqsa rivojlanayotshgan davlatlarda sezilari bo'ladi, chunki bu mamlakatlarda aholining qishloqdan shaharga ko'chib kelishi nazorat qilinmaydi. 1950 yildan buyon dunyoda shahar aholisi 4.37 martaga ko'paydi.
- Aholi va xo'jalik tarmoqlarining yirik shaharlarda to'planishi, bunda shaharlarning ko'p funktsiyali ekanligi, ayniqsa noishlab chiqarish sohalarining rivojlanishiga imkoniyatning kengligi va rivojlangan infrastrukturaga, axborot almashinuvining tezligi sabab bo'ladi. Hozirgi kunda 30 dan ortiq shaharlarda 5 mln dan ko'p aholi yashaydi.
- Shaharlar hududining kengayishi. Bu yirik shaharlar atrofida yo'ldosh shaharlarning paydo bo'lishi bilan kechadi. Bunday ko'rinish shahar aglomeratsiyalari deyiladi. Dunyodagi eng yirik shahar aglomeratsiyalari Mexiko, Nyu-York, Tokio va San-Paulu shaharlari atrofida shakllangan.

Urbanizatsiya shartli darajalari quyidagicha qabul qilingan:

- Urbanizatsiyaning past darajasi -20%
- Urbanizatsiyaning o'rtacha darajasi -20% dan 50% gacha
- Urbanizatsiyaning yuqori darajasi – 50% dan 72% gacha
- Urbanizatsiyaning yuksak darajasi - 72% dan yuqori.

Dunyodagi eng past urbanizatsiya darajasi G'arbiy va SHarqiy Afrika, Madagaskar va ba'zi Osiyo mamlakatlarida kuzatiladi.

O'rtacha urbanizatsiyalashgan mintaqalar Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasidagi Boliviya davlati.

Yuqori urbanizatsiyalashgan mintaqalar MDH, Yevropa, SHimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Avstraliya va JAR hududlaridir. Yer yuzida 107 ta millioner shahar bor. Ba'zi manbalarda esa ularning soni 300 dan ortiq deb ko'rsatiladi. Lekin bu hisobda shahar atrofidagi aholi ham nazarda tutiladi. Aslida shahar aholisining miqdori ayni shahar yuridik hududida yashovchilar bilan chegaralanishi lozim. SHunga ko'ra 107 ta millioner shahar mavjudligi ma'lumot sifatida qabul qilindi. Ularning 28 tasi g'arbiy yarim sharda, 79 tasi sharqiy yarim sharda, 96 tasi shimoliy yarim sharda, 11 tasi janubiy yarim sharda joylashgan. 36 ta millioner shahar poytaxt maqomiga ega.

Urbanizatsiya jarayonining hududiy taqsimoti hozirgi kunda juda rang-barangdir. Dunyo urbanizatsiya xaritasida uchta asosiy mintaqa alohida ajralib turadi. Bular AQSH, Yaponiya va G'arbiy Yevropadir. Bu mintaqalarni uzluksiz joylashgan aholisi 1 milliondan ortiq yirik aholi punktlari to'ldirib turadi. So'ngi 20 yil davomida dunyodagi bu manzarani SHarqiy, va Janubiy Osiyodagi yirik shahar aglomeratsiyalarining paydo bo'lishi o'zgartirmoqda. SHuningdek Lotin

Amerikasi va Afrika mintaqalarida ham yirik shaharlar ko‘payib bormoqda. Bu shahar aholisining ko‘payishi bilan izohlanadi. Dunyo shahar aholisining yarmiga yaqini Osiyoda istiqomat qiladi (1950 yilda 1G’3 qismi edi), 20% dan ortig’i Yevropada yashaydi. XXI asr ostonasida jahon urbanizatsiya jarayoni janubi-sharqiy Osiyo yo‘nalishida kuchaya boshladi. Bu XX asrning ikkinchi yarmida Yaponiya, Xitoy, Hindiston va qator sharqiy va janubiy Osiyo mamlakatlarida shaharlar miqdorining ko‘payishi bilan izohlanadi.

Urbanizatsiya jarayoni hozirgi kunda shahar aholisining juda tezlik bilan ko‘payib borishida namoyon bo‘lmoqda. BMT mutaxassisleri aholisi 8 mln ortgan shaharlarni megashaharlar (mega-yunon tilida ulkan degan ma’noni beradi). 1950 yilda bunday shaharlar sirasiga faqat London va Nyu-York kirgan bo‘lsa, 1960 yilda ular safiga Tokio va SHanxay shaharlari qo‘shildi, 1970 yilda ularning soni 11 taga etdi ulardan 5 tasi rivojlanayotgan mamlakatlarda (Pekin, San-paulu, Buenos Ayres, Rio-de Janeyro) edi, 1994 yil o‘rtalarida 22 ta megashahardan 16 tasi rivojlanayotgan davlatlar hududida shakllandi, 2015 yilda 33 taga etishi taxmin qilinadi, shu bilan birga ulardan 27 tasi rivojlanayotgan davlalarda bo‘lishi, shundan 21 tasi Osiyo qit’asiga tegishli bo‘lishi taxmin qilinadi. Hozirgi kunda 30 dan ortiq shaharlarning aholisi 5 mln dan ko‘p ekanligi qayd qilindi.

Megashaharlar sonining ko‘payishi, (1970-2015 yy)
6-jadval

Yillar mintaqalar	1970	1994	2000	2015(bashorat)
Dunyo bo‘yicha	11	22	25	33
Rivojlanayotgan davlatlar	5	16	19	27
Osiyo (Yaponiyadan tashqari)	2	10	12	19
Lotin AmYerikasi	3	4	5	5
Rivojlangan davlatlar	6	6	6	6
Yevropa	2	2	2	2
SHimoliy AmYerika	2	2	2	2
YAponiya	2	2	2	2

Manba: Qayumov A. Yakubov O’. Abdullayev A. “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” T.: 2011

Yuksak rivojlangan davlatlarda o‘ziga xos yuqori urbanizatsiyalashgan mintaqalar shakllandi. Masalan Tokio-Osaka oralig’ida 130 ta Shahar joylashgan va mamlakat hududining 1G’9 qismini egallaydi. Bu hududda mamlakat aholisining deyarli yarmi 60 mln kishi yashaydi. Ishlab chiqarishning 4G’5 qismi

shu hududda joylashgan va Yaponiya yalpi ichki mahsulotining 90% i ishlab chiqariladi.

Yuqori urbanizatsiyalashgan, shahar aholisining ulushi 80% dan ortiq bo'lgan mamlakatlar ichida Yevropada – Buyuk Britaniya, SHvetsiya, Germaniya, Daniya, Frantsiya, Niderlandiya; SHimoliy Amerikada AQSH va Kanada; Avstraliya va Okeaniyada Avstraliya va Yangi Zelandiya; Osiyoda Yaponiya va Isroil ajralib turadi.

Iqtisodiy rivojlangan mintaqalarda shahar aholisi ulushining 70% dan ortiqligi Yevropa, SHimoliy Amerika va Avstraliya kuzatiladi, bu mintaqalarda shaharlar zamonaviy ishlab chiqarish markazlari sifatida rivojlangan. Shahar aholisi bu hududlarda XX asr boshida ko'paya boshlagan. So'nggi 30 yil davomida bu mintaqalarning dunyo bo'yicha shahar aholisidagi ulushi 45% dan 26% ga kamaydi. Ayni vaqtda boshqa hududlarda shaharliklar soni 400 mln.dan 1.6 mlrd kishiga oshdi. So'nggi 10 yilliklarda iqtisodiy rivojlangan mintaqalarda o'ziga xos kontrurbanizatsiya (teskari urbanizatsiya) jarayoni – aholining yirik shaharlardan chetga ko'chishi kuzatilmoqda.

Lotin Amerikasida 65% dan ortiq aholi shaharlarda yashaydi, Mexiko va San-Paulu kabi dunyodagi eng yirik aglomeratsiyalar mavjud.

Urbanizatsiya jadalligi shahar aholisining ulushi nisbatan kam bo'lgan mintaqalarda kuzatilmoqda. Osiyo qit'asining urbanizatsiya darajasi 34% ni tashkil etadi. Bu mintaqada urbanizatsiya jarayoni juda tez kechmoqda, shunday bo'lsada, bu mintaqadagi shahar aholisining ulushi 29% ni tashkil etadi. SHarqiy Osiyo mamlakatlari – Yaponiya, Tayvan, KXDR va Koreya Respublikalarida shahar aholisining ulushi 70% dan ortiq. Xitoyda shahar aholisining ulushi 32% ni tashkil etadi, mamlakatda migratsiya juda qat'iy nazorat qilinadi.

Urbanizatsiyaning eng past darajasi va eng yuqori jadalligi Afrika qit'asida namoyon bo'lmoqda.

Urbanizatsiyaning Osiyo mintaqasidagi asosiy jihati aholisi 5 mln dan ortiq yirik shahar aglomeratsiyalarining shakllanishida namoyon bo'ladi. O'nlab yirik shaharlarning qo'shni joylashganligi va ularning kengayishi natijasida bir-biriga qo'shib borishi, bu holat ayniqsa yirik avto va temir yo'l magistrallari atrofida joylashgan shaharlarda kuzatiladi, cho'ziq shakldagi urbanizatsiyalashgan hududning shakllanishiga sabab bo'ladi. 1950 yillarda J. Gotmann AQSH da shunday hodisani Atlantika okeani qirg'oqbo'yida tadqiq qildi. Bu hududning uzunligi 1000 km, eni 200 km bo'lib, bir-biriga qo'shib borayotgan aglomeratsiyalar – Boston, Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Vashington va yana 40 ta aglomeratsiyadan tashkil topgan edi. Uning maydoni 170 ming km². J. Gotmann bu hududga Megalopolis (Megapol – qadimgi Yunonistondagi shahar davlatlar ittifoqidagi eng yirik shahar nomi) deb nom berdi va bu nom keyinchalik turdosh otga aylandi. 1961 yilda J. Gotmann “Megalopolis” deb atalgan monografiyasini chop ettirdi. Bu hududda 50 mln dan ortiq aholi yashaydi va sanoat mahsulotlarining ¼ qismi ishlab chiqariladi. Shu tariqa AQSH hududida bir qancha megalopolislarning shakllanganligi ta'kidlandi. Chikago-Pittsburg Buyuk ko'llarning janubiy qirg'oqbo'yida shakllandi. Chikago, Detroyt, Klivlend, Pittsburg shaharlarini va 35 ta shaharni birlashtiruvchi bu hududning maydoni 160

ming km²ni, aholi soni 35 mln dan ortiqni tashkil etadi. Eng yosh megalopolis San-San, San-Diegodan ulkan Kaliforniya vodiysi bo‘ylab Los-Anjelesgacha va undan San-Frantsiskogacha cho‘zilgan, unda 20 mln dan ortiq kishi istiqomat qiladi. Kanadada aholi joylashuvining muhim zvenosini Kvebekdan Vindzorgacha cho‘zilgan urbanizatsiyalashgan zona yoki o‘q tashkil etadi. Uning uzunligi 1000 km dan ortiq bo‘lib, eni 300 km, uning hududida mamlakat aholisining 55% yashaydi, sanoat tarmoqlarida band mehnat resurslarining 73% to‘plangan. Aholi soni bo‘yicha eng katta megalopolis Tokaydo (70 mln dan ortiq kishi) Yaponiyaning Tinch okean qirg‘oqbo‘yida shakllangan. Bu yuqori darajada urbanizatsiyalashgan hudud bir necha 100 km ga cho‘zilgan va Tokio, Iokogama, Kavasaki, Nagoya, Kioto, Osaka, Kobe va boshqa hammasi bo‘lib 25 ta Shaharlarni birlashtirgan hududda mamlakat aholisining 60% dan ortig‘i yashaydi va sanoat mahsulotlarining 2G‘3 qismi ishlab chiqariladi. Megalopolislar G‘arbiy Yevropada ham shakllanmoqda. Ular AQSH yoki Yaponiyadagi megalopolislardan ko‘lami, aholi soni va maydoni jihatidan kichik. Maydoni jihatidan London, Birmingem, Manchester, Liverpool va boshqa shaharlarni birlashtiruvchi Angliya megalopolisi, Reyn (Niderlandiyadagi Ranstadt, GFR dagi Reyn-Rur, Reyn-Mayn va boshqa aglomeratsiyalarni birlashtiradi) megalopolislari ajralib turadi. Ularning har biri 30 tagacha aglomeratsiyalarni birlashtiradi va maydoni 50 ming km², aholi soni 30-35 mln kishi ni tashkil etadi. Megalopolislarning shakllanishi bu mintaqada yirik aglomeratsiyalarning rivojlanishi bilan bog‘liq. London aglomeratsiyasining aholisi 12 mln kishin, Parijniki 10 mln kshi, Quyi Reyn-Rur aglomeratsiyasining aholi soni 11 mln kishini tashkil etadi. Mamlakatlararo megalopolislarning shakllanishi qiziqarli hoisadir. SHimoli-G‘arbiy Yevropada shunday megalopolis shakllangan. Bu megalopolis 5 ta mamlakatning urbanizatsiyalashgan, maydoni 230 ming km², aholisi 85 mln kishi, aholi zichligi 350 kishini tashkil etuvchi hududini birlashtiradi. Bu hududlar SHimoli-SHarqiy Angliya, Ranstatd, Reyn-Rur, Belgiya-frantsiya hududi (Antverpen, Bryussel, Lill shaharlari) va Parijni qamrab oladi.

TAYANCH IBORALAR

Aholi manzilgohlari, shaharlar, qishloqlar, shahar darajasiga etmagan sanoat manzilgohi posyolkalar, ko‘makchi harakterga ega bo‘lgan aholi punktlari, ko‘chmanchi halqlarning yashash formalari, urbanizatsiya

Nazorat va mulohaza uchun savollar:

1. Shaharlar nima?
2. Qishloqlar va uning turlari?
3. Urbanizatsiya?

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
2. Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.
3. Корылов V.A. География населения. Учебное пособие. – М.: 1999. – 124 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavssizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent, 1997.
5. O'zbekiston Davlat Statistika Departamentining 2010 yilga qadar chop etilgan respublika aholisining soni tabiiy o'sishi, migratsiyasi va ijtimoiy taraqqiyotiga oid statistik yilnomalar.
6. O'zbekistonda 1987, 1926, 1939, 1959,1970,1979, va 1989 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari.
7. Abdurahnmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Noshir nashriyoti. – 2011.
8. Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N. Aholi geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
9. Bo'rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o'quv qo'llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.
- 10.Bo'rieva M. R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T.,Universitet, 1997.-157 b.
- 11.Narodonaselenie. Ensiklopedicheskiy slovar. – M., 1994.
12. Ubaydullaeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o'quv qo'llanma). – T., 2006.
13. Simagin Yu.A. Territorialnaya organizatsiya naseleniya. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya “Dashkov i K”, 2004. – 244 s.
14. Soliev A.S., Bo'rieva M.R va boshqalar. Qishloq joylar demografiyasi. – T., 2005. - 140 b.

15. Tojjeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 b.
16. Tojjeva Z.N. Statistikaning umumiy nazariyasi. – T., 2000.-58 b.
17. Tojjeva Z.N. Iqtisodiy va demografik statistika. – T., 2002.-160 b.

Elektron manbalar:

1. <http://www.demoscope.ru>.
2. <http://www.dmo.econ.msu.ru>.
3. <http://www.undp.org/popin/popin.html>.
4. <http://ziyo.net>